



## NOO'RIN BAG'ISHLOV

**Zokirjonova Gulsevar Zoirjon qizi**

*Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi 7- “B” sinf o‘quvchisi*

Dugonasiga Lola,  
Bir kun dedi shunday:  
“O‘rtoqjonim bir bora,  
Men bilan o‘tir bunday.

Quyon haqida senga,  
Aytib berayin ertak.  
Der unga dugonasi:  
Mayli quloq solayin.

Qadim o‘tgan zamonda,  
Bor ekan bitta quyon.  
Ko‘zlari har tomonda,  
Qararkan u yon bu yon.

So‘rasang rangi-tusin,  
Oppoq ekan u o‘zi.  
Qulog‘i biram uzun,  
Qop-qora ekan ko‘zi.

Fe’l-atvori tor ekan,  
Sal narsaga qizishib,  
U yoshgina g‘o‘r ekan,  
Senga juda o‘xsharkan.

Ertak shu yerga yetib,  
Dugonasi “portlabdi”.  
Meni mazax qilma deb  
Jahl qilib dodlabdi.

Ertaging qurib ketsin,  
Menga yoqmadi sira,  
Televizorni ko‘rayin,  
Uyimda unda ko‘ra.